

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Kengashi raislik etuvchi



D.Aripov

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Kengashi majlisining

5-son BAYONNOMASI

2025-yil 6-noyabr

Toshkent shahri

Raislik etuvchi:

D.U.Aripov – DSc, professor, Odil sudlov akademiyasi prorektori v.v.b.

Ishtirok etdilar:

yu.f.d., professor I.I.Nasriyev, yu.f.d., professor B.Samarxodjaev, Kengash kotibi – yu.f.f.d (PhD), F.Madiyev.

onlayn tarzda (Zoom orqali): yu.f.n, dotsent M.P.Qalandarova, yu.f.d., professor Y.V.Kolenko, Sh.T.Polvonov, U.Q.Mingbayev, yu.f.d., professor M.X.Rahmonqulov, yu.f.n, dotsent S.B.Xolbayev, yu.f.n, dotsent Sh.Xaqnazarov, yu.f.d., professor M.X.Rustambayev, A.X.Eshmurodov, yu.f.d., professor A.Saidov.

K U N T A R T I B I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ma‘muriy-huquqiy fanlar kafedrası mudiri yu.f.d., prof. B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26-sentyabrda o‘tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko‘rib chiqish.

Raislik qiluvchi kun tartibidagi masala yuzasidan so‘z olib, majlis ishtirokchilarini O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ma‘muriy-huquqiy fanlar kafedrası mudiri yu.f.d., prof. B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26-sentyabrda o‘tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko‘rib chiqilishi bo‘yicha raislik qilish Kengashning 24.10.2025-yildagi majlisida tasdiqlanganligini eslatib o‘tdi.

D.Aripov kun tartibidagi masalani muhokama qilish uchun Kengash a'zosi bo'lmagan va ovoz berishda ishtirok etishi mumkin bo'lmagan Akademiya xodimlarini majlisda ishtirok etmasligini so'radi.

Shundan so'ng, raislik etuvchi B.B.Samarxodjayevedan biror fikr mulohazalari bo'lsa, muhokama qilishdan oldin berish mumkinligini so'radi.

B.B.Samarxodjayeov hozirda fikrlari yo'qligini, lekin Kengash qaroriga qarab, o'zining fikrini bildirishini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, Kengash muhokamisini boshlash uchun B.B.Samarxodjayeovga majlisni vaqtincha tark etishi so'raldi.

Raislik etuvchi B.Samarxodjayeovning murojaati avvalgi majlisda tinglanganligini, undan shikoyatining yozma shakldagi nusxasini taqdim etish so'ralganligini, biroq hozirgacha taqdim etilmaganini, shu sababli shikoyat bo'yicha yakuniy to'xtamga kelish uchun majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolaridan taklif va mulohazalar bo'lsa bildirishi mumkinligini so'radi.

Sh.Polvonov B.Samarxodjayeovning murojaati bo'yicha atroflicha muhokama qilib bo'linganini, shu bois, uning murojaatini qanoatlantirish yoki rad etishdan oldin, uning o'zi va Akademiya rahbariyati o'zaro kelishuv yo'li bilan nizoni hal qilishi muvofiqligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, so'z olgan M.P.Qalandarova va Y.V.Kolenkolar ham ayni shu mazmundagi fikrni bayon qildilar.

Raislik qiluvchi mazkur masala yuzasidan kimda qanday taklif va mulohazalar borligini so'rab, majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolariga murojaat qildi. Kengash a'zolarida qo'shimcha taklif va mulohazalar bo'lmadi.

Shundan so'ng raislik etuvchi yuqoridagi takliflarni e'tiborga olgan holda B.Samarxodjaev bilan Akademiya rahbariyati o'rtasida nizoni o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilish masalasini ko'rib chiqish uchun majlisni qoldirib turish haqida taklif kiritdi. Kengash a'zolarida e'tiroz va mulohazalar bo'lmadi.

2025-yil 7-noyabr

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ma'muriy-huquqiy fanlar kafedraasi mudiri yu.f.d., prof. B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26-sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqish davom ettirildi.

Raislik etuvchi B.Samarxodjaev bilan Akademiya rahbariyati o'rtasida nizoni o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilish imkoni bo'lmaganini bildirib, Kengash a'zolaridan B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26-sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyati yuzasidan ovoz berishlarini so'radi.

Attestatsiya komissiyasining B.B.Samarxodjaevga nisbatan qarorini bekor qilish bo'yicha:

tarafdorlar – 11 nafar, qarshilar – 1 nafar; betaraflar – yo'q.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash


QAROR QILDI :

1. B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26-sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyati qanoatlantirilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasida 2025-yil 26-sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasining B.B.Samarxodjaevga nisbatan "attestatsiyadan o'tmadi – egallab turgan lavozimiga noloyiq" degan qarori bekor qilinsin.

3. Ma'muriy-huquqiy fanlar kafedrasini mudiri, yu.f.d., prof. B.B.Samarxodjaev attestatsiyadan o'tgan deb hisoblansin.

Kengash kotibi:



F.Madiyev

Orgun

2025 y. 19 noyabr

